

# O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

UDK 631.52: 635.646: 664.856

## BAQLAJONNING OZIQ-OVQAT SANOATIDAGI O‘RNI

**Turayev Dilshod Shodavlatovich**

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti “Yengil sanoat va oziq-ovqat texnologiyalar” kafedrasi assistenti

2-sho‘ba, +998915895424

**Annotatsiya:** Maqolada bugungi kunda iqtisodiyotni bozor munosabatlarida o‘tganligi, aholiga yil davomida oziqaviy qiymati yuqori oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta’minlash hamda baqlajonning birinchi avlod duragaylarining oziq-ovqat sanoati uchun xo‘jalik-qimmatli belgilari yoritilgan.

**Abstract:** The article discusses the transition of the economy to market relations today, the need to provide the population with food products of high nutritional value throughout the year, and the economic and valuable characteristics of first-generation eggplant hybrids for the food industry.

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы перехода экономики страны на рыночные отношения в современных условиях, необходимость обеспечения населения продуктами питания высокой пищевой ценности в течение всего года, а также хозяйственно-ценные признаки гибридов баклажанов первого поколения для пищевой промышленности.

**Kalit so‘zlar:** hosildorlik, kombinatsiya, geterozis, chidamli, duragay, ovalsimon, seleksiya, ertapishar.

**Keywords:** yield, combination, heterosis, resistance, hybrid, oval, selection, early ripening

**Ключевые слова:** урожайность, комбинация, гетерозис, устойчивость, гибрид, овал, отбор, скороспелость

**Kirish.** S. melongena yovvoyi va yarim yovvoyi shaklda Hindistonda uchraydi [5]. Ushbu yekinning sistematikasi asosan agroekologik ta’sirga bog‘liq [3]. Kenja turlarning har biri o‘shish shakli, antotsiyan rangi, asosiy poyaning balandligi yoki mayda mevalarda achchiq ta’m mavjudligi bilan keskin farlanib ajralib turadi. V.L.

# O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

## II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

Gazenbush Sharqiy va g‘arbiy kenja turi Rossiyada keng tarqalganligini o‘z ma’lumotlarida keltiradi [4].

Baqlajonning ertapishar, bo‘rtma nematodasiga chidamli nav va duragaylarini yaratish seleksiyasi Respublikamizda yangi yo‘nalishlardan hisoblanadi. Bunday nav va duragaylarni yaratish avvalo, mamlakatimiz aholisini erta bahorda yangi, vitaminlarga boy baqlajonga bo‘lgan talabini qondirsa, ikkinchidan respublikamizda keng tarqalgan zararkunanda bo‘rtma nematodasining keltiradigan zarari natijasida sodir bo‘ladigan hosildorlik pasayishining oldini oladi. Baqlajon mevasi o‘ziga xos mazasi, o‘simlikda va uzoq masofalarga jo‘natilganda yaxshi saqlanishi hamda qayta ishlashga yaroqliligi bilan alohida ahamiyatga egadir.

**Tadqiqotning dolzarbligi.** Dunyoning rivojlangan mamlakatlar nufuzli qishloq xo‘jaligi ilmiy tadqiqot muassalarining seleksioner olimlari tomonidan turlararo chatishtirish orqali baqlajonning iqlim sharoitlariga moslashuvchan, serhosil va zarurkunandaga chidamli nav va duragaylari yaratilmoqda. Xususan, Bolgariya qishloq xo‘jaligi hosildorligining 90-95% birinchi avlod ( $F_1$ ) duragaylari hisobida amalga oshiriladi. Ushbu nav va duragaylar seleksiya ishlarida ulkan yutuq hisoblanadi.

Mamlakatimizda ham baqlajonning birinchi avlod ( $F_1$ ) duragaylarini yaratish va undan ishlab chiqarishda foydalanishni ilmiy asosda keng yo‘lga qo‘yish va talab darajasida yetishtirish shu kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

**Ilmiy tadqiqot metodologiyasi** SPE va KITI Surxondaryo ilmiy-tajriba stansiyasi seleksiyasiga mansub nav, tizma namunalari va SPE va KITI Surxondaryo ilmiy-tajriba stansiyasi yaratilib, o‘rganilib kelinayotgan navlarning birinchi avlod duragaylari tadqiqot ishlarida material sifatida o‘rganildi. Tajriba qaytariqsiz. Hisob bo‘lmacha maydoni 4,2 m<sup>2</sup>. Bo‘lmachada o‘simliklar soni 20 ta, bo‘lmacha uch katorli. Duragaylar qiyosiy duragay va ota-ona formalariga taqqoslab o‘rganildi.<sup>7</sup>

---

<sup>7</sup> Методические указания по изучению и поддержанию мировой коллекции овощных пасленовых культур (томат, перец, баклажан) Л., 1977. 23 с.

# O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

## II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

Baqlajon qaynatib, qovurib iste'mol qilinadi, ikra, qiymalar kabi konserva mahsulotlari hamda quritilgan mahsulotlar tayyorlashda foydalaniladi. Standart talabi bo'yicha baqlajon sabzavoti uchun asosiy ko'rsakichlardan biri mevalarning uzunligi hisoblanadi. Silindirsimon shaklli baqlajonlarda sabzavot uzunligi 10 sm dan kam bo'lmasligi kerak. Boshqa shakldagi baqlajonlar uchun esa katta ko'ndalang kesimining diametri me'yorlanadi. Ularda katta ko'ndalang kesimning diametri 5 sm dan kam bo'lmasligi talab etiladi.

Ilmiy izlanishlarimiz davomida baqlajonning bir qancha birinchi avlod duragaylarini yaratib ularning hosildorligi, ertapisharligi, morfologik ko'rsatkichlari, tarkibidagi suvda eruvchi qand miqdori va quruq massasini miqdorlari o'rganildi.

**Natijalar:** Izlanishlarimiz davomida o'rganilgan baqlajonning birinchi avlod duragaylarining suvda eriydigan qand miqdori  $F_1$  Zamin standartga va ota-onaga nisbatan taqqoslab o'rganildi.<sup>8</sup>

Birinchi avlod duragaylarida meva shakli  $F_1$  Surxon go'zali x Solyaris,  $F_1$  L-29 x Solyaris,  $F_1$  L-29 x Gelios,  $F_1$  L-9 x Surxon go'zali,  $F_1$  L-9 x L-29,  $F_1$  L-9 x Matrosik duragaylarida ota-onaga xos shaklga ega bo'lishdi.  $F_1$  L-29 x L-9, duragayida esa ota-ona shakllarini aks ettirmadi, uning meva shakli standart  $F_1$  Zamin kabi ovalsimon bo'ldi. Mevalarning rangi esa barcha duragaylarda standart kabi binafsha rangida bo'ldi.  $F_1$  Zamin standartida suvda eruvchi quruq modda miqdori 3,7%, quruq modda miqdori esa 11% ga ega bo'ldi. Suvda eruvchi quruq modda miqdori duragaylarda standartga nisbatan 1,9 dan 3,8% gacha yuqori bo'ldi.  $F_1$  S.g. x Sol.,  $F_1$  L-29 x L-9 va  $F_1$  L-9 x Mak. duragaylarida quruq modda miqdori standartga nisbatan 0,2-8,7% miqdorda yuqori bo'ldi.  $F_1$  S.g. x Sol. da 8,5% va  $F_1$  L-29 x L-9 da 1,5% ko'rsatkichida ota-onaga nisbatan yuqori bo'ldi. Ota-ona formalari  $F_1$  L-29 x Sol.,  $F_1$  L-29 x Gel.,  $F_1$  L-9 x S.g.,  $F_1$  L-9 x L-29 va  $F_1$  L-9 x Mak.ga nisbatan yuqori bo'ldi, 1-jadval.

### 1-jadval

<sup>8</sup> Shoumarov X. "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va birlamchi qayta ishlash texnologiyasi" laboratoriya ishlari uchun qo'llanma Toshkent-2011

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

**II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

**Baqlajon birinchi avlod duragaylari mevalarining tuzilishi va kimyoviy tarkibi,  
2021 yil**

| <b>№</b> | <b>Nav va duragaylar</b>   | <b>Meva shakli</b>  | <b>Meva rangi</b> | <b>Suvda eruvchi quruq modda miqdori, %</b> | <b>Umumiy quruq modda miqdori, %</b> |
|----------|----------------------------|---------------------|-------------------|---|--------------------------------------|
| 1        | F <sub>1</sub> Zamin       | ovalsimon           | qora binafsha     | 3,7   | 11                                   |
| 2        | Surxon go‘zali             | silindirsimon       | qora binafsha     | 4,8   | 11,2                                 |
| 3        | F <sub>1</sub> S.g. x Sol. | noksimon            | qora binafsha     | 7,3   | 16,7                                 |
| 4        | F <sub>1</sub> L-29 x Sol. | noksimon            | qora binafsha     | 7,2   | 8                                    |
| 5        | F <sub>1</sub> L-29 x L-9  | ovalsimon           | to‘q binafsha     | 6,4   | 14,3                                 |
| 6        | F <sub>1</sub> L-29 x Gel. | keng dumaloq        | to‘q binafsha     | 7,5   | 5,9                                  |
| 7        | F <sub>1</sub> L-9 x S.g.  | kalta silindirsimon | to‘q binafsha     | 5,6   | 7,8                                  |
| 8        | F <sub>1</sub> L-9 x L-29  | kalta silindirsimon | to‘q binafsha     | 6,1   | 6,1                                  |
| 9        | F <sub>1</sub> L-9 x Mak.  | dumaloq             | och binafsha      | 6,2   | 11,2                                 |

Baqlajonning hosildorlik ko‘rsatkichlari metodikalar bo‘yicha aniqlandi [2]. Baqlajon mevalarining bir tupda meva soni, vazni ko‘rsatkichlari o‘rganildi. F<sub>1</sub> Zamin duragayida bir tupda o‘rtacha meva soni 12 ta, meva vazni 151 g. bo‘ldi. F<sub>1</sub> S.g. x Sol., F<sub>1</sub> L-29 x Sol., F<sub>1</sub> L-29 x L-9 va F<sub>1</sub> L-29 x Gel., duragaylarida meva soni standart kabi bir xil ko‘rsatkichda bo‘ldi. F<sub>1</sub> L-9 x S.g., F<sub>1</sub> L-9 x L-29 va F<sub>1</sub> L-9 x Mak. duragaylarida esa meva soni standartga nisbatan 8,3-16,7 foizda yuqori bo‘ldi. Standartga nisbatan F<sub>1</sub> L-29 x Gel. va F<sub>1</sub> L-9 x Mak. duragaylarida meva vazni standartga nisbatan 9,0-16,8 foizda yuqori bo‘ldi. Meva vazni F<sub>1</sub> L-29 x Sol. F<sub>1</sub> L-29 x Gel. va F<sub>1</sub> L-9 x Mak. duragaylarida geterozis samarasi 4,8-7,7 % da yuqori bo‘ldi.

**Muhokama va xulosa.** Tadqiqotlar davomida olingan natijalarga ko‘ra F<sub>1</sub> S.g. x Sol., F<sub>1</sub> L-29 x L-9 va F<sub>1</sub> L-9 x Mak. duragaylari ko‘rsatkichlari ma‘qul hisoblanadi. Ilmiy izlanishlar davomida istiqbolli duragaylarning yaratilishi baqlajon seleksiya ishlarining kengayishiga va fermer, dehqon xo‘jaliklariga hosildor va ahamiyatli

# **O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

## **II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

sabzavot yetishtirishga hamda aholiga sifatli sabzavotlar bilan ta’minlashga erishiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Shoumarov X. “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va birlamchi qayta ishlash texnologiyasi” laboratoriya ishlari uchun qo‘llanma Toshkent-2011
2. Доспехов Б.А. (1986) “Методика полевого опыта” – Москва.
3. Филов А. И. Баклажаны – *Solanum melongena* / А. И. Филов // Культурная флора СССР. Овощные пасленовые. – 20. М. – Л., 1958 - Библиогр.: С. 292-370.
4. Газенбуш, В.А. Баклажаны / В.А. Газенбуш // Сорта овощных культур в СССР. М. – Л., 1960 – С. 235-255.
5. Мамедов, М.И., Баклажан (*Solanum spp.*) / М.И. Мамедов, О.Н. Пышная, Е.А. Джос, Н.А. Шмыкова и др. - М.: Изд-во ВНИИССОК, 2015. – 264 с.
6. Методические указания по изучению и поддержанию мировой коллекции овощных пасленовых культур (томат, перец, баклажан) Л., 1977. 23 с.
7. Я. Глушенко и др. “Методические указания по изучению и поддержанию мировой коллекции овощных пасленовых культур (томат, перец, баклажан)” Л., 1977